

MAQOLLAR

*Andijon davlat chet tillari instituti**Roman-german va Slavyan tillari fakulteti**Kompyuter lingvistikasi 25-01 guruh talabasi:**Sotvoldiyeva Fotima Azizbek qizi**Ilmiy maslahatchi: Kabulova.U.S*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqol nima. U insonlarga qanday mexanizm bo'lim xizmat qiladi. Tarixda bu mavzuda qanday voqealar fikr va mulohazalar keltirilgan. Xalq maqollarining ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni, ular orqali bolalarga yuksak insoniy qadriyatlarni singdirishning ahamiyatini o'rganishga undaydi.

Kalit so'zlar: *Folklorshunos, maqol, "Devonu lug'ot at-turk", axloqiy qadriyatlar.*

Abstract: This article discusses what a proverb is. What mechanism does it serve people? What events in history have been discussed on this topic? It encourages us to study the role of folk proverbs in the process of education and upbringing, the importance of instilling high human values in children through them.

Keywords: *Folklorist, proverb, "Devonu Lu'ot at-Turk", moral values.*

Аннотация: В данной статье рассматривается, что такое пословица. Какой механизм она выполняет для людей? Какие исторические события были связаны с этой темой? Она побуждает нас к изучению роли народных пословиц в процессе обучения и воспитания, важности формирования у детей через них высоких человеческих ценностей.

Ключевые слова: *Фольклорист, пословица, «Дивону Луат ат-Турк», моральные ценности.*

O'zbek xalq maqollari- bu xalqning ko'p asrlik tajribasi, bilimlari va dunyoqarashini o'zida mujassamlashtirgan og'zaki san'atning ajralmas qismi hisoblanadi. Maqollar odamlarning kundalik hayotida ishlatiladigan, qisqa va aniq

iboralar bo‘lib, insoniyatning muhim axloqiy va falsafiy fikrlarini ifodalaydi. Har bir maqol o‘zida ulkan ma’no va darsni yashiradi, shu sababli ular xalqning aqliy merosini avlodlardan avlodga etkazib kelishda alohida rol o‘ynaydi

Maqollar nafaqat estetik, balki tarbiyaviy funksiyani ham bajarib kelmoqda. Folklorshunos olimlar xalq maqollarini “folklorning ixcham shakl, ammo teran mazmunga ega bo‘lgan bir janri” sifatida uning “har biri tilimiz ko‘rkini, nutqimiz nafosatini, aql farosat va tafakkurimiz mantig‘ini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir”, — deb ta’kidlaydilar.¹ O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov ta’biri bilan aytganda “Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir”.

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot at-turk” asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli vari-antlarda ishlatiladi. Bu asarda qo‘llangan ko‘pgina maqollar xalqimizning qariyb ming yillik tarixini, hayotini, urf-odat hamda qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Asarda 300 ga yaqin maqol va matallar mavjud. Shuningdek, maqol Koshg‘ariy asarida “Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin”; “Odam olasi ichida, mol olasi tashida” kabi. Biz maqollarni hayotda juda ko‘p ishlatamiz to‘g‘rimi!²

Shuningdek, Muhammadsharif Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida ham bu hodisani kuzatishimiz mumkin. Gulxaniy ushbu asarini yozishda maqol, naql va xalq og‘zaki ijodining 400 ga yaqin namunalaridan mahorat bilan foydalangan. Asarning kompozitsion qurilishi, syujeti maqollar asosida qurilganligi tufayli murakkab sanaladi. Ammo tushunilishi jihatidan oson va qiziqarli. Asarda insonlarning xatti - harakatlari, ruhiyati tasviri aynan qushlarning suhbatlari orqali ochib berilgan. Asardagi

¹ Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. — URL: www.ziyouz.com kutubxonasi

² Jozilova Marjona Mirzohid qizi marjonazakhidjanovna@gmail.com (<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286981>)

Yapaloqqush va Boyo'g'li markaziy qahramonlar hisoblanadi. Bu asar Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ot at-turk" asaridan ancha keyin yaratilganligi tufayli asardagi qo'llangan maqollar hozirgi kunda insonlar nutqida qo'llanuvchi maqollardan keskin farq qilmaydi.³

Masalan, "Devonu lug'ot at-turk" asarida keltirilgan maqollarni bugungi kundagi ko'rinishi bilan taqqoslab chiqamiz :⁴

1. Kishi olasi ichtin, yilqi olasi tashtin - Odamning olasi ichida, mol olasi tashida;
2. Qish qo'niqi – o't - Qishning ziyofati olov[dir] ;
3. Yazmas atim – yag'mir, Yangilmas bilga - yanqu - Xato qilmaydigan mergan – yomg'ir, Yanglishmaydigan dono - aks-sado ; (bilga - dono)
4. Ag'ilda o'g'laq tu'sa, ariqda o'ti unar – Og'ilda uloq tug'ilsa, ariqda o'ti chiqadi;
5. Uma kelsa, qut kelur - Mehmon kelsa, baraka kelar; (Uma - mehmon)
6. Qush qanatin, er atin - Qush qanoti bilan, er oti bilan ;
7. O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik – Ho'kizning oyog'i bo'lguncha buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq; (Yik - yaxshiroq)
8. Tag'ig' uquqin egmas, tengizni qayg'iqin bukmas – Tog' arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi;
9. Emgak ekinda qolmas - Mehnat bekor ketmaydi; (Emgak - mehnat)
10. O'd kechar, kishi to'ymas, yalinguq o'g'li mangu qalmas - Zamon o'tar, kishi

³ Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma'nolar maxzani, T., 2001.

⁴ ."Devonu lug'ot at-turk" asaridan olingan parchalar Q. Sodiqov nashridan.

to‘ymas, inson bolasi mangu qolmas ;

Ma’lumki, tarbiya ko‘proq ta’lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kunidan boshlab, bilim olishga havas tuyg‘usi shakllantiriladi. Ularda asta sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo‘ladi va bu orqali o‘quvchilar ma’naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayr-u ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g‘urur, matonat, mehr-oqibat, do‘stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo‘ladi. Albatta, bu jarayonda xalq maqollarining o‘rni beqiyosdir. Jumladan, maqol janridagi asarlar ham boladagi qo‘pollik, qo‘rslik, yolg‘onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi.⁵

Har bir maqol o‘z ichiga katta hayotiy tajriba va bilimlarni sig‘dirganligi uchun uning tarbiya viy ahamiyati beqiyosdir. Maqollar axloq-odob me‘yorlari va qadriyatlarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Masalan, “Yaxshilik qilsang, yaxshilik topasan” degan maqol kishilarda ezgulik, mehr-muhabbat, boshqalarga yor dam berish, yaxshilik qilish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Shu orqali insonlar o‘zaro munosabatlarda adolatli va halol bo‘lishga, boshqalarga yordam berishga da’vat qilinadi. Maqollar avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan hayotiy saboqlarni o‘rgatadi. Ular orqali yoshlar turli hayotiy vaziyatlarda qanday yo‘l tutishlari, qaror qabul qilish lari kerakligini bilib olishadi. Masalan, “Odamning gapidan odam, hayvonning izidan hayvon” degan maqol orqali insonning so‘zlari va ishlari uning asl mohiyatini aks ettirishi ta’kidlanadi, ya’ni har kimning so‘zidan kimligini bilish mumkinligi o‘rgatiladi. Xalqning ko‘p yillik tajribasi va donishmandligi maqollarda aks etgan. “Ko‘pni ko‘rgan emas, ko‘pni bilgan bilag‘on” degan maqol shuni anglatadiki, insonning bilimi va tajribasi uning hayotdagi muvaffaqiyatiga asos bo‘ladi. Bu maqol nafaqat bilimning ahamiya tini ta’kidlaydi, balki hayotiy tajribaning ham qadr-qimmatini ochib

⁵ https://uz.m.wikiquote.org/wiki/O%CA%BBzbek_maqollari

beradi.⁶ Xuddi shunday, “O‘zingni bil, elingni bil” maqoli ham inson o‘zini va o‘z xalqini tushunishi, qadrlashi lozimligini o‘rgatadi. Maqollar axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi.

Maqolning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Fikr aniq: Maqol o‘zida aniq va ravshan fikrni mujassamlashtiradi, har bir maqolning mazmuni qisqa va tushunarli bo‘ladi.

2. Xulosa tugallangan: Maqol, odatda, biror voqeani yoki holatni umumlashtirgan holda, yakuniy xulosa chiqaradi. Fikrni tugatish, o‘rganish uchun oson bo‘ladigan tarzda taqdim etiladi.

3. Ifoda lo‘nda: Maqollar qisqava lo‘ndabo‘lib, murakkab fikrlarni oddiyvaoson tushunarli tarzda ifodalaydi. Bu ularning samaralita‘sirchanbo‘lishini ta‘minlaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Devonu lug'ot at-turk" asaridan olingan parchalar Q. Sodiqov nashridan.

2. Jozilova Marjona Mirzohid qizi marjonazakhidjanovna@gmail.com

(<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286981>)

3. Muhhamadjon Hakimov. Maqol terminlari haqida. // Uzbek tili va adabiyoti jurnali, 1965. 7 –son.

4. https://uz.m.wikiquote.org/wiki/O%CA%BBzbek_maqollari.

5. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. — URL: www.ziyouz.com kutubxonasi.

6. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh., Ma’nolar maxzani, T., 2001.

⁶ Muhhamadjon Hakimov. Maqol terminlari haqida. // Uzbek tili va adabiyoti jurnali, 1965. 7 –son